



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI QABUL QILISHNI IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

¹Quljonov Olimjon Mamatovich

Iqtisod fanlari nomzodi, Dots.,

²Ikromov Qudratbek Kozimjon o'g'li

Magistrant, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

@ikromov0789@gmail.com.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7801195>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2023

Accepted: 04th April 2023

Online: 05th April 2023

KEY WORDS

MHXS, iqtisodiy o'sish, YaIM, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, moliyaviy rivojlanish, ochiq bozor, siyosiy turg'unlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada MHXSni joriy qilish mamalakat iqtisodiyoti rivojiga qanday bog'liqligi, buni natijasida yana qaysi sohalar rivojiga bevosita ta'siri o'rganib chiqiladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik birgina mamlakatning o'zigagina emas, balki xalqaro darajada ahamiyatligi yoritib beriladi.

Kirish.

Xalqaro standartlarni joriy qilishda unga bo'lgan xohish muhim ahamiyat kasb etadi va bu yo'nalishda 2020-yil 24-fevralda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori imzolangani ham xohishning darajasini ko'rsatib berdi. Mazkur qarorga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari va yirik soliq to'lovchilar MHXS asosida hisob yuritishlari kerakligi belgilab qo'yilgan. Bugungi biznes dunyosida, mamlakat iqtisodiy holati - jamiyat hayotida qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatyapti. Bunda iqtisodiyotni tarkibi bo'lgan korxonalar, xizmat ko'rsatuvchi - biznes subyektlari buni belgilab beryapti. Ularni rivojlanishida nafaqat ichki investorlarni balki tashqi investorlarni jalb qilish bugungi kunning birlamchi vazifalaridan bo'lib qoldi. Ularni jalb qilishda iqtisodiy subyektlarimizni moliyaviy hisobotlari dastlabki oyna bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilish moliyaviy holatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar: aktivlar; majburiyatlar; xususiy kapital; daromad va xarajatlarni mazmunini yanada ochib beradi. Investorlarga moliyaviy aktivni yo'naltirishda oqilona va aniqroq qaror qilish imkonini yaratadi. Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha xalqaro komissiyalar tashkiloti (IOSCO) kabi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ham xalqaro standartlarni iqtisodiyotga joriy qilishni rag'batlantiradi¹.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Adabiyotlarga to'xtalishdan avval moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, iqtisodiy o'sish kabi iqtisodiy atamalarini aniqlashtirib olsak. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodchi olim Maqsud Qurbonboyev moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o'z maqolasida: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – moliyaviy hisobotlarni tuzish

¹ Assessing the effects of ifrs adoption on economic growth: a cross country study article by Dr. Ahmet Özcan 2016 66 p.



uchun hujjatlar to'plami, moliyaviy hisobotlarning tuzilishini tartibga soluvchi reglament bo'lib, tashqi foydalanuvchilar tomonidan biror-bir tashkilotga nisbatan iqtisodiy qaror qabul qilish uchun foydalaniladi² – deb ta'riflaydi. Bundan tashqari dunyoga mashhur CFA instituti saytida quyidagicha ta'riflanadi: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - buxgalteriya hisobi standartlari to'plami bo'lib, ular moliyaviy hisobotlarda muayyan turdagi operatsiyalar va hodisalar qanday aks ettirilishi kerakligini tartibga soladi³”. Yana bir iqtisodiy atamalar to'plami hisoblangan Investopedia saytida esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarini izchil, shaffof va butun dunyo bo'ylab oson taqqoslanadigan qilish uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobi qoidalari to'plamidir⁴. Bizningcha, bu ta'riflardan ko'rishimiz mumkinki moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) xalqaro darajadagi biznes tili ekan. Boshqa sohalarida bo'lgani kabi ushbu yo'nalishda ham hamma tushuna oladigan tushunchalar, qoidalar yig'indisini – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari deb yuritsak bo'ladi.

O'zbek iqtisodiy olimlaridan biri Mamatov iqtisodiy o'sishni quyidagicha ta'riflaydi: “Iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarishni takomillashtirish, iqtisodiyotda progressiv o'zgarishlar va qayta qurishlarning muhim shart-sharoitidir. U taraqqiyotning ajralmas qismi, ijtimoiy rivojlanishning asosini tashkil qiladi. Iqtisodiy o'sish o'tgan davrga nisbatan bu davrda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning ortishidir⁵”. Yana bir dunyoga mashhur manba hisoblanmish wikipedia saytida esa iqtisodiy o'sish bir moliya yili mobaynida tovarlar va xizmatlarning inflatsiyani hisobga olib baholaganda qiymatini oshishi yoki sifatini yaxshilanishidir⁶. Bu ta'riflardan xulosa qiladigan bo'lsak, har ikki manba ham chuqur o'rganishlar natijasida kelib chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha, iqtisodiy o'sish - mavjud talablarni qondirilish ko'rsatkichini yildan yilga ko'payishi demakdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarga ishlov berishda mantiqiy mushohada, manbalarni tanqidiy o'rganish (analiz va sintez), taqqoslash, tizimli va omil tahlillaridan foydalanildi.

Xususan, MHXSni qabul qilishda siyosiy muhit, iqtisodiy bilim-ko'nikma, iqtisodiy muhit va qarorlar omilli tahlil usulidan foydalanib ko'rib chiqildi. Bundan tashqari boshqa davlatlarda bu jarayon qanday kechganligini o'rganishda internet manbalari taqqoslash va analiz tahlillari orqali o'rganib chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilish hozirgi globallashuv davrida zarurligi barcha iqtisodchilar tomonidan baralla aytilmoqda. Qabul qilishni iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish, tahlil qilish uni mazmunini yanada ochib berishi shubhasiz. Bugungi kunda buxgalteriya hisobida ikkita katta manbalar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards) va AQShning Buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan qoidalari – BHUQ (Generally Accepted Accounting Principles – GAAP)

2 [Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish afzalligi nimada? \(uza.uz\)](https://www.cfainstitute.org/en/advocacy/issues/international-finance-reporting-stds#sort=%40pubbrowsedate%20descending)

3 <https://www.cfainstitute.org/en/advocacy/issues/international-finance-reporting-stds#sort=%40pubbrowsedate%20descending>

4 <https://www.investopedia.com/terms/i/ifrs.asp>

5 “Iqtisodiy o'sish” o'quv qo'llanma – Mamatov M. Toshkent-2021. 5-bet

6 https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_growth



tan olingan⁷. Umuman olib qaraganda BHUQ(GAAP) – tamoyillarga asoslangan, MHXS(IFRS) – qoidalarga asoslangan ekan. Hozirda butun dunyo bo'yicha 167 mamlakat MHXSni qabul qilgan⁸(Lekin hammasi ham MHXS bo'yicha to'liq o'tib bo'lgani yo'q). Bu davlatlar orasida katta yigirmalik (G20) - iqtisodiyoti yuqori ko'rsatkichlarga ega davlatlar bo'lgani ham qanchalik ahamiyatli ekanini ko'rsatib beradi. 2016-yilda amalga oshirilgan tadqiqot⁹ davomida iqtisodiy o'sish va MHXSni qabul qilish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun 41 ta MHXSni qabul qilgan va 29 ta qabul qilmagan davlatlardagi ko'rsatkichlar taqqoslangan. Natijalar bir o'zgaruvchini ko'rsatuvchi yalpi ichki mahsulot o'sishi(YaIM), to'gridan-to'g'ri tashqi investitsiyalar (TTI), ta'lim darajasi (TD), ijro etilish darajasi (ID), siyosiy turg'unlik (ST), ochiq bozor (OB), moliyaviy rivojlanganlik (MR) kabi ko'rsatkichlari o'rganib chiqildi. Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, MHXSni qabul qilganlardan(3,1%) ko'ra qabul qilmaganlar(4,9%)da YaIM o'sish ko'rsatkichi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich to'g'ridan-to'g'ri tashqi investitsiyalarni hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaganiga guvoh bo'lishimiz mumkin, ya'ni tashqi investorlar uchun xalqaro standartlar asosida hisob yuritiladigan mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda jozibaliroq ko'rinar ekan(mos ravishda 9,9% va 8,8%). Chunki MHXSni qabul qilgan tuzumlarda yaxshi ishlab chiqilgan qonunlari va iqtisodiy infrastruktura borligi ularni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi ekan. Bundan tashqari ta'lim darajasi ham xalqaro standartlarni qabul qilgan mamlakatlardan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin, bu ko'rsatkich hali qabul qilmaganlarda sezilarli kamligi ahamiyatli. Shu o'rinda iqtisodiyotda inson kapitali qanchalik hal qiluvchi omil ekanligi bu ko'rsatkichning ahamiyatini belgilab beradi¹⁰. Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, siyosiy turg'unlik MHXSni qabul qilgan mamlakatlarda ijobiy tarafga o'zgargan, narigilarida esa siyosiy vaziyat yomonlashganini ko'rishimiz mumkin. Ochiq bozor tamoyili xalqaro standartlar bo'yicha ishlaydiganlar ham hali qabul qilinmaganlarda ham deyarli teng miqdorda o'sganini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot davomida moliyaviy rivojlanish ko'rsatkichi MHXS bilan ishlaydiganlarda karrasiga ortiqligi bu manba (MHXS) ahamiyatiga haqiqiy baho bo'lib bergan.

1-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilgan va qilmagan davlatlar ko'rsatkichlaridan kelib chiqib tashkil qilingan ma'lumotlar¹¹

Qator nomi	Manba		Standart chetlanish	
	MHXSni qabul qilganlar	MHXSni qabul qilmaganlar	MHXSni qabul qilganlar	MHXSni qabul qilmaganlar
YaIM o'sishi	3,113%	4,992%	4,252	7,372

⁷ "Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standarlari" o'quv qo'llanma – Ergasheva Sh., Ibragimov A., Rizayev N., Ibragimova I. Toshkent-2019 7-bet

⁸ <https://www.ifrs.org/use-around-the-world/use-of-ifrs-standards-by-jurisdiction/#use-of-ifrs-accounting-standards-by-jurisdiction>

⁹ <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/270719>

¹⁰ <https://www.investopedia.com/ask/answers/032415/what-relationship-between-human-capital-and-economic-growth.asp#:~:text=development%20of%20workers,-,Human%20Capital%20and%20Economic%20Growth,investment%20is%20in%20human%20capital.>

¹¹ Assessing the effects of ifrs adoption on economic growth: a cross country study article by Dr. Ahmet Özcan 2016



TTI	9,895%	8,764%	0,751	1,271
TD	0,724%	0,484%	0,127	0,165
ID	0,566%	-5,300%	1,000	0,545
ST	0,207%	-0,571%	0,836	0,813
OB	1,905%	1,833%	0,204	0,250
MR	78,308%	14,659%	11,251	6,918

Standart chetlanish - o'rganishdagi mamlakatlar ko'rsatkichlari qaysi oraliqda tebranishi ko'rsatyapti. Birgacha bo'lganlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ma'lumotlar deyarli bir biriga yaqib bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. YaIM o'sishi va moliyaviy rivojlanish ko'rsatkichlari esa sezilarni darajada tebrangan ekan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, davlatimizni iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish uchun yalpi ichki mahsulot(YaIM)ning barqaror o'sish sur'atlariga erishish, byudjet barqarorligi, ishlab chiqarish mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash, buning uchun esa, chet el investitsiyalarini ko'proq kiritish muhim rol o'ynaydi. Xalqaro standartlar asosida hisob yuritish faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlardagina emas, balki ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham o'z aksini topadi. Insonlar hayot darajasi, iste'mol paketi, raqobat muhiti, ijtimoiy faollik ko'rsatkichlari o'rganilgan mamlakatlarda butun 10 yil davomida ijobiy tomonga o'tganligi alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xalqaro fond bozorlariga kirish uchun "chipta" ekanligi hozirgi paytda uni qabul qilish zaruratini belgilab bermoqda. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish hamda sohaga oid oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish yuzasidan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirishga ham ustuvor vazifa sifatida qarash bu yo'nalishda tamal toshlaridan biri bo'ladi. Bulardan xulosa qilish mumkinki, MHXSni qabul qilish va iqtisodiy o'sish bir-biriga to'g'ridan to'g'ri bog'liq ekan. Tadqiqot bandlariga qaraydigan bo'lsak xalqaro moliyaviy hisobotlarni qabul qilish bilangina emas, balki ta'lim tizimi, inson kapitali, geografik joylashuv va siyosiy tuzilmalarda ham islohot qilish zaruratini ko'rsatadi.

References:

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida - O'RQ-404-son, 2016 y.
2. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4611 - 24.02.2020
3. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" o'quv qo'llanma - - Ergasheva Sh., Ibragimov A., Rizayev N., Ibragimova I. Toshkent-2019
4. "Iqtisodiy o'sish" o'quv qo'llanma - Mamatov M. Toshkent-2021
5. "Assessing the effects of ifrs adoption on economic growth: a cross country study" article by Dr. Ahmet Özcan 2016



6. "International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors. Accounting and Business Research", 36(1), 5-27/ - Ball, R. 2006
7. "Accounting quality and firm-level capital investment. The Accounting Review", - Biddle, G. C., & Hilary, G. 2006
8. <https://www.ifrs.org>
9. www.investopedia.com
10. <https://en.wikipedia.org>